

## **GEOEKOLOGIK MUAMMOLAR. GEOEKOLOGIK MUAMMOLARNING YECHIMIGA OID ILMIY NAZARIYALAR**

**Ahmadjonova Mohigul Sodiqjon qizi**

*Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi katta o'qituvchisi,*

**Hokimjonov Muhammaddiyor Husanboy o'g'li**

**Davronboyeva Sarvinoz Jumaboy qizi**

*Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish texnikumi talabalari*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Geoekologik muammolarning vujudga kelishi O'zbekiston Respublikasining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** geoekologik, tabiiy, hudud, tabiat, geografik, resurs, atrof-muhit, demografik.

### **KIRISH**

Ma'lumki, tabiiy muhitning ifloslanishi tabiiy omillar va inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq tarzda ro'y beradi. Inson xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'ladigan ifloslanish antropogen ifloslanish deyiladi. Inson tabiatdan u yoki bu ne'matlarni olar ekan, tabiatga o'z maqsadi yo'lida turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Geotizimlarda bu ta'sirning kuchayishi oqibatida tabiiy muvozanat buziladi va natijada, turli geoekologik muammolar kelib chiqadi. Geoekologik muammo qotib qolgan, o'zgarmas holat bo'lmay, dinamik o'zgaruvchi va rivojlanuvchi, ko'p omilli, ko'p sonli oddiy muammolarning majmuasidir.

Geografik muhitdagi bugungi iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik muammolarni yuzaga kelishiga uzoq yillar davomida tabiatdan ilmiy asoslanmagan holda, beparvolik bilan foydalanish sabab bo'ldi. Jahondagi iqtisodiy taraqqiyotning ilim-fan oldiga qo'yyayotgan ijtimoiy buyurtmasi hamda barqaror rivojlanish va bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib olib borish geografik tadqiqotlarda geoekologik vaziyat noqulay bo'lgan qishloq joylarda hududidan foydalanishda geoekologik barqarorlikni, ya'ni ekologik va xo'jalik muvozanatini ta'minlash, agrodemografik yukni kamaytirish, etnoekologik madaniyatni tiklash va boyitish asosida landshaft talabiga moslashtirish dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega vazifadir [1,2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-soni "O'zbekiston Respublikasida yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi PF-5065-son “Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilonan foydalanish borasida nazoratni kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlari yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2017 yil 31 maydagi PQ-3024-son “O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro davlat qo‘mitasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yilda O‘zbekistonda 2030 yilgacha bo‘lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda Ekologik ta’limni rivojlantirish kontseptsiyalari qabul qilinganligi, o‘sha yili 2019–2028 yillar davrida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish va 2019–2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyalari ham tasdiqlanganligi tog‘risidagi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi [3,4].

Mazkur ilmiy ishimda geoekologik muammolarni bartaraf etishda hududning o‘ziga xos jihatlariga asoslanish zarurligi to‘g‘risidagi masalalar yoritilgan. Bunda xududning tabiiy, iqtisodiy xususiyatlariga bog‘liq holda aholi zichligini hisobga olish keragligi borasidagi fikirlar ilgari suriladi. Aholi zichligi o‘rganilganda, hududning agrodemografik bosimini alohida hisoblash lozimligi va hisoblash uslubi berilgan. Shu bilan birga tabiatdan foydalanishda balandlik mintaqalari kesimida landshaftli yondashuv zarurligi izohlanadi [5].

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Turli tabiiy va demografik, iqtisodiy geografik sharoitga ega bo‘lgan qishloq joylarda “tabiat-aholi-xo‘jalik” tizimida yuz berayotgan o‘zaro aloqadorlik, ularning zamон va makonda o‘zgarish qonuniyatлari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish kerak. Qishloq joylarda mavjud noqulay geoekologik sharoitni takomillashtirishning inovatsion, bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi, kam harajatli va aholi ehtiyojlarini hamda ekologik talablarni etiborga oluvchi usul va yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Geoekologik karta va atlaslar yaratish bo‘yicha tabiiy resurslardan, birinchi navbatda yerdan samarali foydalanish muammolari va baholash masalalari bo‘yicha V.V.Dokuchayev, A.T.Bolotov, O.S.Bezuglova, P.A.Kostichev, I.A.Stebut, P.P.Semenov-Tyanshanskiy va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekistonda tuproqshunoslik masalalari bo‘yicha R.Qo‘ziyev, L.A.G‘afurova, Sh.M.Bobomurodov, M.M.Toshqo‘ziyev, G.Yuldashev, S.Abdullayev, V.Yu.Isaqov, R.Qurvantoyev, I.U.Urazbayev, T.A.Abdraxmonov, A.U.Axmedov, A.J.Boirov, M.T.Isag‘aliyev, G.M.Nabiyeva, Z.A.Jabbarov, N.I.Shadiyeva,

G.T.Djalilova, A.J.Ismakov, O'.Sobitov, V.X. Sherimbetov, K.R.Xakimova, A.A.Marupov va boshqa olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan [6,7].

## NATIJA VA MUHOKAMA

Geoekologik muammolarning qanday ko'lamda vujudga kelishi hamda shakllanishiga ularga ta'sir etuvchi asosiy ichki va tashqi omillar majmuasi, geotizimlarning dinamik o'zgaruvchanligi va murakkablik darjasи, ularni tashkil etuvchi komponentlarining xususiyatlari hamda o'zaro aloqalarining barqarorligi va boshqalar ta'sir etadi.

Tabiat va jamiyat o'rtaсидаги о'заро munosabatlarning keskinlashuvi oqibatida joylarda, ba'zan juda katta hududlarda, turli geoekologik muammolar tarkib topmoqda. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, bunday muammolar hududiy jihatdan bir-biri bilan o'zaro aloqada va shakllanib bormoqda. Geoekologik muammolar tarqalgan maydonlari miqyosi, rivojlanish darjasи va turlariga qarab dunyo miqyosidagi, o'lka miqyosidagi va mahalliy guruhlarga ajratiladi [8].

Tabiatdan foydalanish oqibatida yuzaga keladigan geoekologik muammolarni landshaftlarning qaysi komponentiga ta'sir qilish oqibatida yuzaga kelishiga ko'ra o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda markazga landshaft komponentlaridan biri qo'yiladi va u bilan bog'liq bo'lgan geoekologik muammolar o'rganiladi. Har qanday tashqi ta'sir albatta landshaft komponentlarining barchasiga ta'sir qiladi, lekin ularning orasida eng ko'p va birinchi bo'lib zararlanadiganini aniqlash mumkin, bunda albatta landshaft invarianti vazifasini qaysi komponent o'tayotganligiga ham e'tibor berish kerak.

Umuman olganda o'zi tabiatdagi geoekologik muammolarning barchasi insonning tabiatdan foydalanish jarayonida tabiatga noto'g'ri ta'siri oqibatida kelib chiqmoqda.

O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to'g'risidagi qonunchiligini tahlil qilish atrof-muhitni muhofaza qilishning quyidagi asosiy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini ajratib olishga imkon beradi: atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasida rejalashtirish; atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tartibga solish va standartlashtirish; atrof-muhitni litsenziyalash; atrof-muhit monitoringi; atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanish sohasidagi buxgalteriya hisobi; atrof-muhitga ta'sirni baholash (EIA); atrof-muhitni baholash; atrof-muhitni sertifikatlash; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi nazorat; ekologik audit [9,10].

O'rganish natijalaridan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida aytib o'tilgan mexanizmlarning ba'zilari, allaqachon ta'kidlab o'tilganidek, profilaktika

funktsiyasini bajaradi va atrof-muhit uchun xavfli hodisalar paydo bo‘lishining oldini olishga, shuningdek atrof-muhit va inson salomatligi uchun ekologik xavfli bo‘lgan joylarni, ob’ektlarni va faoliyatni aniqlashga qaratilgan. (masalan, atrof-muhit monitoringi, EIA, ekologik ekspertiza). Boshqalari tartibga soluvchi, atrof-muhitga ta’sir qilish chegaralarini belgilaydigan, shuningdek tabiiy resurslardan foydalanishning maxsus shartlari (atrofmuhitni muhofaza qilish sohasidagi tartibga solish, atrof-muhitga ta’sir bilan bog‘liq faoliyatni litsenziyalash va boshqalar) hisoblanadi. Bundan tashqari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning bir qismi ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilish bosqichida, ba’zilari esa ikkinchisini amalga oshirish bosqichida qo‘llaniladi. Qonunchilik faoliyati tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston Respublikasining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish to‘g‘risidagi qonunchiligidagi quyidagi yuridik tadbirlar kiradi:

- tabiiy resurslardan foydalanish, saqlash va qayta ishlash bo‘yicha munosabatni qonuniy rostlash;
- kadrlarni o‘qitish va tarbiyalashni tashkil qilish, tabiatni asrash va himoyalashga qaratilgan tadbir;
- harakatlarni moliyalash hamda moddiy texnikaviy taominlash;
- tabiatni himoyalash talablarini bajarilishini jamoat va davlat nazoratlari;
- qonunbuzarlarning yuridik javobgarligi shular jumlasiga kiradi.

Yuqorida yutuqlarimiz bilan birgalikda qonunchilikni tartibga solish doirasida amalga oshiriladigan ishlarimiz ham borki, ular quyidagilardir:

- ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishda tizimli nuqsonlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo‘llari ekologik huquqiy mexanizmni takomillashtirish;
- ekologik huquqiy sohaning samarali huquqiy modellarini ishlab chiqish;
- davlat-xususiy sheriklik asosida atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

Guvohi bo‘lganimizdek, atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasi amaldagi ekologik qonunchilik bilan tartibga solingan [11,12,13]. Bularning barchasi o‘z navbatida atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasini huquqiy tartibga solish masalalarining naqadar dolzarb ekanligidan, uning atrof – muhitni himoya qilish va tabiiy resurslardan foydalanish hamda muhofaza qilish sohasidagi printsiplarni ta’minlash, ekologik qonunchilikka rioya etilishini kafolatlashdagi ahamiyati beqiyos ekanligidan dalolat beradi.

Farg'ona viloyatida geoekologik-xo'jalik holatini optimallashtirishning geografik yo'nalishlaridan biri o'rta va uzoq muddatli rejulashtirishda agrodemografik bosim miqdorini kamaytirib borishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini taklif etishdir. Bu o'rinda xalq xo'jaligi tarmoqlari va aholini yer bilan ta'minlanganlik darajasini yoki bir gektar sug'oriladigan yerga to'g'ri keladiagan aholi miqdorini mezonga yaqin bo'lishini ta'minlash muhimdir. Ushbu ko'rstgichlarga mezon sifatida mintaqaning o'rtacha ko'rsatkichi olinadi [14].

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, qishloq joylari Respublikamiz hududining katta maydonini tashkil etadi. Bu esa mazkur hududlarda tabiatdan foydalanishning muntazam ortib borishi va natijada geoekologik vazaiyatning keskinlashib borishini ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtida mavjud ekologik muammolarni o'rganish va hal qilish masalasiga ikki hil yondashish mavjuddir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yusufovich G. Y. et al. The use of remote sensing technologies in the design of maps of agricultural land //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2023. – T. 23. – C. 17-21.
2. Yusufovich G. Y., Shavkat o'g'li S. Y. CARTOGRAPHIC RESOURCES USED IN THE CREATION OF ELECTRONIC AGRICULTURAL MAPS OF FERGANA REGION //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 1001-1009.
3. Abduvakhabovich A. A., Shavkat o'g'li S. Y. IMPROVING THE METHOD OF MAPPING AGRICULTURE USING REMOTE SENSING DATA //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. 11. – №. 3. – C. 1093-1100.
4. Eshnazarov D. et al. Describing the administrative border of Koshtepa district on an electronic digital map and creating a web map //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 452. – C. 03009.
5. Khakimova K. et al. Application of GIS technologies for improving the content of the tourist map of Fergana province, Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 386.
6. Khakimova K., Yokubov S. CREATION OF AGRICULTURAL ELECTRONIC MAPS USING GEOINNOVATION METHODS AND TECHNOLOGIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D1. – C. 64-71.
7. Mamatqulov O., Qobilov S., Yokubov S. CULTIVATION OF MEDICINAL

SAFFRON PLANT IN THE SOIL COVER OF FERGANA REGION //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 240-244.

8. qizi Olimova D. S. et al. THEORETICAL BASIS FOR THE USE OF MODERN GIS TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF NATURAL CARDS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 4-10.

9. Mavlyankulova S. Z. et al. THE ESSENCE OF CARTOGRAPHIC MAPS IS THAT THEY ARE USED FOR CARTOGRAPHIC DESCRIPTION OF THE TERRAIN. GENERALIZING WORKS IN THE PREPARATION OF MAPS //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 27-33.

10. Alakhanov Z. M. et al. THE STATE CADASTRE FOR THE REGULATION OF INFORMATION RESOURCES FOR THE FORMATION AND IMPROVEMENT //Educational Research in Universal Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 47-53.

11. Shavkat o‘g‘li Y. S., Zuxriddinovna M. S., Qizi O. D. S. ARC Create an Agricultural Card in GIS and Panorama Applications //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science. – 2022. – T. 3. – №. 6. – C. 429-434.

12. Arabboevna A. M., Shavkat o‘g‘li Y. S. The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. – T. 8. – C. 163-164.

13. Khakimova K. R. et al. SOME TECHNOLOGICAL ISSUES OF USING GIS IN MAPPING OF IRRIGATED LANDS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 4. – C. 226-233.

14. O‘G‘Li S. Y. S., Zuxriddinovna M. S., Qizi A. S. B. THE USE OF MAPINFO PROGRAM METHODS IN THE CREATION OF CADASTRAL CARDS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. A3. – C. 278-283.